

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 133 (1732), 2026-yil 3-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON — GRUZIYA: KO‘P QIRRALI MUNOSABATLARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-iyul kuni davlat tashrifi bilan Tbilisi shahriga keldi.



Shota Rustaveli nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Gruziya Bosh vazirining o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Maka Bochorishvili hamda boshqa rasmiylar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

So‘ng Tbilisi shahrida Gruziya Prezidentining qarorgohi — Orbeliani saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarini Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili samimiy qarshi oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga qarorgoh oldidagi maydonda ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar harbiy orkestr sadolari ostida faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Gruziyaga davlat tashrifi doirasida Tbilisi shahridagi Orbeliani saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Gruziya Prezidenti

Mixail Kavelashvilining muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston — Gruziya ko‘p qirrali munosabatlari yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Gruziya Prezidentiga samimiy mehmondo‘stlik uchun minnatdorlik bildirib, ushbu mamlakatga davlat tashrifi so‘nggi 23 yilda ilk bor amalga oshirilayotganini alohida ta’kidladi.

Parlamentlar, hukumatlar va ishbiarmon doiralar o‘rtasidagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tovar ayirboshlash hajmi 270 million dollarga yetdi, qo‘shma loyiha va korxonalar soni ortib bormoqda. Mamlakatimizda Gruziyaning birinchi raqamli banki — “TBC” muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Toshkent bilan Tbilisi va Batumi shaharlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning mart oyida O‘zbekiston poytaxtida Gruziya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

O‘zaro savdo hajmini, jumladan, Poti va Batumi portlari salohiyatidan samarali foydalanish orqali yanada oshirish masalalariga ustuvor e‘tibor qaratildi.

Farmatsevtika, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va turizm sohalarida kooperatsiyani rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Ishbilarmonlik, turistik va gumanitar almashinuvlarni yo‘lga qo‘yish uchun hududlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida Shavkat Mirziyoyev Mixail Kavelashvilini mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Tbilisi shahridagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Gruziyaning oliy davlat mukofoti — “Oltin mo‘yna” ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston — Gruziya ko‘p qirrali munosabatlari rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun davlatimiz rahbariga ushbu mukofotni Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili topshirdi.

O‘zbekiston yetakchisi Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili, Bosh vaziri Irakli Kobaxidze hamda Parlament Raisi Shalva Papuashviliya yuksak mukofot uchun minnatdorlik bildirib, do‘st Gruziya xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Orbeliani saroyining Faxriy mehmonlar kitobiga samimiy tilaklarini yozib qoldirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘za

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati

Gruziyaning “Oltin mo‘yna” ordeni

“Oltin mo‘yna” ordeni — Gruziyaning oliy davlat mukofotlaridan biri.



Orden 1998-yilda ta‘sis etilgan bo‘lib, Gruziya davlatchiligini rivojlantirish, mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish, xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, shuningdek, gruzin madaniyati, ilm-fani va san‘atini targ‘ib etishga ko‘shgan alohida hisssasi uchun taqdim etiladi.

Orden nomi qadimgi yunon mifologiyasidagi Oltin mo‘yna haqidagi afsona hamda hozirgi G‘arbiy Gruziya hududida joylashgan tarixiy Kolxida o‘lkasi bilan bog‘liq.

Orden nishonchasi diametri 52 millimetr bo‘lgan oltin yulduzdan iborat bo‘lib, u katta yetti uchli va kichik yetti nurli yulduzlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yaratilgan. Nishonni bezashda to‘q qizil va ko‘k rangli emal, oltin bezak elementlari, qizil va ko‘k rangli ko‘shimcha naqshlardan foydalanilgan. Markaziy medalyonda Oltin mo‘yna tasviri joylashtirilgan.

Ordenning yuqori qismi qalqon va “LABOR PRO GEORGIA” (“Gruziya farovonligi yo‘lidagi mehnat”) degan shior

yozilgan tasma ushlab turgan ikki oltin grifon ko‘rinishida ishlangan. Ordenning orqa tomonida uning tartib raqami, “Gruziya oldidagi xizmatlari uchun” degan yozuv hamda tayyorlangan yili ko‘rsatiladi. Orden ikki chetidan oltinsimon chiziqlar o‘tkazilgan havorang tasмага taqiladi.

Mazkur yuksak mukofot bilan turli yillarda Buyuk Britaniya Qirolchasi Yelizaveta II, Iordaniya Podshohi Abdulla II, Germaniya Kansleri Gernard Shryoder, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliev va boshqalar taqdirlangan.

Mulohaza

TARIX YARATAYOTGAN IRODA TANTANASI

Tarix har kuni yozilmaydi. Millat taqdirini o‘zgartiruvchi voqealar ham, xalqning ertangi kuniga tamal toshi qo‘yadigan shaxslar ham har zamonda dunyoga kelavermaydi. Ba‘zan o‘nlab yillarga tatigulik o‘zgarishlar bir avlod umri davomida ro‘y beradi. Ba‘zan esa millatning kechagi orzusi bugungi voqelikka aylanadi.



Taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Millat Shavkati” maqolasini o‘qir ekanman, qalbimda aynan shu tuyg‘ular uyg‘ondi. Chunki maqola oddiy tahlil yoki xotiralar to‘plami emas. U xalq va davlat taqdirining hal qiluvchi pallalarida shakllangan siyosiy iroda, rahbar mas‘uliyati va millat taqdiri haqidagi teran mushohadadir.

Eng muhimi, ushbu fikr-mulohazalarni mamlakatimiz hayotida kechgan ulkan

o‘zgarishlarni chetdan kuzatgan emas, balki ularning markazida bo‘lgan, Prezidentimiz bilan turli bosqichlarda hamfikir va hamnafas ishlagan, katta hayotiy va siyosiy tajribaga ega inson qalamga olgan. Shu bois, maqoladagi har bir fikr hayot haqiqati bilan sug‘orilgan.

Davomi 2-betda

Iyun sarhisobi

Maqolani yozishga kirishganimizda bir narsa ravshan edi: unda ma‘naviyat va iqtisod mavzusi ustuvor bo‘ladi! Negaki mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida iyun oyi mobaynida kechgan voqealarning aksariyati ko‘proq ana shu ikki yo‘nalish kesimida kechdi.

MA‘NAVIVY BUYUK XALQ — IQTISODIY TOMONDAN HAM BUYUK BO‘LADI

Prezidentimizning “Pragmatik muloqot — barqaror kelajak sari yo‘l” shiori ostida o‘tgan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi yig‘ilishi va Toshkent investitsiya forumida ishtirok etib, nutq so‘zlagani, Chirchiq shahriga tashrifi, qator xorijiy davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro delegatsiyalarni qabul qilgani kabi katta ahamiyatli voqealarni iqtisodiy yo‘nalishlar qatorida tilga olish mumkin.

Shuningdek, o‘yinng dastlabki kuni madaniyat va san‘at xodimlari bilan sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan uchrashuv, Namanganda o‘tgan maqom festivalidagi ishtirok, Andijon shahrining “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e‘lon qilinishi doirasida xalqaro tadbir, Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni tadbirlari va tabrigi, Yoshlar kuni munosabati bilan davlatimiz rahbari va yoshlar uchrashuvi kabi muhim voqealiklar esa ma‘naviyatga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Shu o‘rinda mamlakatimiz yetakchisi 2024-yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis

Qonunchilik palatasining yig‘ilishida aytgan mashhur iqtibosni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lsa kerak: “Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma‘naviyatdir. Ma‘naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi”.



1-iyun kuni Xalqaro kongress markazida madaniyat va san‘at sohasi vakillari bilan uchrashuv chog‘ida ilgari surilgan tashabbuslar, taqdim etilgan yangi imkoniyat va imtiyozlar sohada yangi davrni boshlab berdi. Davlatimiz rahbarining shu yil 28-maydagi farmoni bilan madaniyat, san‘at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Uchrashuv avvalida ushbu mukofotlarni tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Taqdirlanganlar orasida uzoq yillar samarali mehnat qilib, xalqimizning madaniy, badiiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchi va shoirlar, xonanda va

sozandalar, raqs ustalari, opera ijrochilari va bastakorlar, teatr, kino va sirk san‘ati namoyandalari, baxshilar va askiyachilar, hunarmand va rassomlar, madaniy meros, muzey va kutubxona xodimlari, ustoz va murabbiylar borligi barchamizga faxr bag‘ishlashi e‘tirof etildi.

— Qaysi millatning adabiyoti boy, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy, kinosi ta‘sirchan, san‘ati jozibador bo‘lsa, o‘sha xalqning ovozi dunyoda baland eshitiladi, — dedi Prezidentimiz.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida inson qalbini tarbiyalaydigan katta ma‘naviy makon yaratilayotgani, bu borada ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, madaniyat va san‘at namoyandalari, kreativ soha vakillarining o‘rni beqiyos ekani ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari mukofotlanganlarni butun xalqimiz nomidan samimiy tabriklab, yuksak e‘tirof ularni yangi ijodiy yutuqlarga ilhomlantirishiga ishonch bildirdi. Mukofotlanganlar yuksak hurmat va e‘tibor, madaniyat rivoji va ijodkorlarga yaratilayotgan keng sharoitlar uchun minnatdorlik bildirdi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz madaniyat va san‘at sohasi vakillari bilan muloqot qildi. Madaniyat va san‘at xalq ma‘naviyati, jamiyat tafakkuri va yoshlar tarbiyasida beqiyos o‘rin tutishini ta’kidladi. Ayniqsa, hozirgiday texnik taraqqiyot va murakkab siyosiy jarayonlar fonida bu yanada dolzarblik kasb etmoqda. Inson ongi va qalbini egallash uchun chegara kesib o‘tish shart bo‘lmay qoldi. Ana shunday sharoitda kitob, teatr, kino, musiqa va adabiyot jamiyatning ma‘naviy immunitetini mustahkamlaydigan eng ta‘sirchan vositalar ekani qayd etildi.

— Bugun dunyoda qanday tahlikali holat, qarama-qarshilik va nizolar ro‘y berayotganini ko‘rib turibmiz. Bunday vaziyatda biz uchun milliy birlik va hamjihatlik har qachongidan ham muhim. Ishonchim komil, bu borada sizlar eng oldingi safda turib, chinakam vatanparvarlik, millatga sadoqat va fidoyilik fazilatlarining bilan yoshlarimizga, butun xalqimizga namuna bo‘lasizlar, — dedi Prezidentimiz.

Davomi 3-betda

TARIX YARATAYOTGAN IRODA TANTANASI

Mulohaza

Boshlanishi 1-betda

Maqolani oʻqir ekanman, beixtiyor xotiralar ummoniga gʻarq boʻldim va koʻz oʻngimda Shavkat Mirziyoyevning Jizzax viloyatiga rahbarlik qilgan, izlanishlarga boy yillari qayta gavdalandi.

Buni baralla aytishga bugun ham tarix, ham vijdon oldida toʻla haqqimiz bor deb oʻylayman. Oʻsha yillar Jizzax vohasi va uning bagʻrikeng xalqi uchun hech bir maʼnoda oson kechmagan edi.

Bugungi farovonlik va bunyodkorlik manzarasidan turib oʻtmishga baho berish oson. Ammo oʻsha murakkab davrning ruhini, nafasini oʻz tanasida his qilgan odam yaxshi biladi, viloyat u paytlarda nihoyatda ogʻir iqtisodiy-ijtimoiy ahvolda edi. Qishloq xoʻjaligiga, ayniqsa, paxta yakkahokimligiga bir yoqlama bogʻlanib qolgan zaif iqtisodiyot, mutlaqo eskitirib, yaroqsiz holga kelgan infratuzilma, yillab taʼmir koʻrmagan maktab va shifoxonalar, eng achinarlisi, odamlar kayfiyatidagi umidsizlik va tushkunlik ustuvor edi.

Oʻsha kezlarda eng ogʻir dard insonlarning ertangi kunga, adolatga va kelajakka ishonchi tobora susayib borayotganida edi. Ana shunday nihoyatda tahlikali va murakkab sharoitda hududga mutlaqo yangicha dunyoqarashga ega boʻlgan yosh, gʻayratli rahbar keldi.

Bugun oradan yillar oʻtib, oʻsha davrga xolis nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqatni ochiq va dadil aytilish mumkin, Shavkat Mirziyoyev ish faoliyatini boshlashda, avvalo, odamlarning qalbida soʻnib borayotgan ishonch olovini qayta uygʻotdi. Chunki u rahbar sifatida muammolardan qochmadi, ularning koʻziga tik qaradi. Har bir masalani shinamgina ish kabinetida oʻtirib emas, balki eng chekka qishloqlar, dala shiypnlari va mahallalarga kirib, odamlarning ichidan turib hal etishni oʻzining bosh ish uslubiga aylantirdi.

Erkin XOLMATOV,
Jizzax viloyati Ekologiya va iqlim oʻzgarishi bosh boshqarmasi boshligʻi,
Xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi deputati

Oʻsha suronli yillarda, respublika markazidan qandaydir qoʻshimcha imkoniyat yoki mablagʻ kutib oʻtirmasdan,

oʻzidan paydo boʻlib qolgan hodisa emas. Bu yillar davomida shakllangan, xalq dardini eshitish, oddiy odamlarni tushunish,

akkumulyator zavodining qayta tiklanishi, Xotira bogʻi bunyod etilishi, oʻnlab shifoxona va maktablar taʼmirlanishi, Jizzax olimpiya xazinalari kolleji qad rostlashi va 2001-yilda ilk bor “Barkamol avlod” sport oʻyinlarining respublika final bosqichi Jizzax shahridagi mazkur sport maskanida oʻtkazilishi, qishloq xoʻjaligida soʻnggi oʻn yilliklarda birinchi marta belgilangan rejalar ortigʻi bilan bajarilishi odamlarning koʻnglini koʻtarib yubordi, ularning qalbida “demak, harakat qilsak boʻlar ekan, demak, oʻzgartirish mumkin ekan!” degan qatʼiy ishonchni mustahkam qaror toptirdi.

Bugun butun mamlakatimiz hayotida kuzatilayotgan global va ulkan oʻzgarishlarning maʼnaviy, siyosiy hamda strategik ildizlari aynan oʻsha yillarda, hududlarni boshqarishda oʻrtirilgan tajribalarda shakllanganini siyosatshunos Qudratilla Rafiqov oʻz maqolasida juda asosli va rad etib boʻlmas dalillar bilan koʻrsatib beradi.

Haqiqatan ham, bugun biz butun dunyoga faxr bilan tanitayotganimiz yangi Oʻzbekiston fenomeni bir kunda yoki oʻz-



mavjud tizimli muammolarni yashirmasdan mardonavor tan olish va ularni qatʼiyat bilan hal etishga kutib yashagan, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hudud bugun mamlakatning zamonaviy sanoat xaritasida eng muhim va strategik oʻrin tutadigan qudratli viloyatga aylandi. Jahon andozalari darajasidagi yangi avtomobilsozlik loyihalari, yirik va zamonaviy sanoat korxonalari, eksport hajmi keskin oʻsishi, aholi oʻrtasida ishsizlik va kambagʻallik sezilarli darajada qisqarishi shunchaki quruq statistika emas. Bu raqamlar ortida tubdan oʻzgarayotgan inson taqdiri, oilalar farovonligi va yurtidoshlarimizning davlatga yuksak ishonchining amaliy ifodasi mujassam.

Ayniqsa, mahallabay ishlash va mahallalarni ichki imkoniyatdan kelib chiqib rivojlantirishga qaratilgan mutlaqo yangi, dunyo tajribasida kam kuzatilgan tizimli yondashuv alohida eʼtiborga molik. Bugun har bir mahallaning iqtisodiy salohiyati, drayver sohalari chuqur oʻrganilib, uning tabiiy va mehnat resurslaridan kelib chiqqan holda alohida rivojlanish dasturlari shakllantirilmoqda. Bu esa barcha dadil islohotlarning markazida, eng avvalo, inson va uning manfaatlari turganining yana bir yorqin tasdiqʻidir.

qiynayotgan muammolar joylarning oʻzida, Xalq qabulxonalari orqali tizimli hal etilishi, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha mutlaqo yangi mezonlar yaratilgani, yoshlar va xotin-qizlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash siyosati hamda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijdagi vatandoshlarimiz huquqlarini himoya qilish boʻyicha qilinayotgan misli koʻrilmagan ishlar fikrimizning yaqqol tasdiqʻidir.

Biz bugun koʻpincha faqat erishilgan natijalar va ulkan bunyodkorlik haqida gapiramiz. Lekin baʼzan bugungi yutuqlarning haqiqiy qiymatini, nechogʻliq mashaqqat bilan qoʻlga kiritilganini teran anglash uchun yaqin oʻtmishni, kechagi kunni ham bir bor yodga olish maqsadga muvofiq boʻladi.

Keksa va oʻrta avlod vakillari juda yaxshi eslaydi, bir vaqtlar biz dunyoning rivojlangan, fuqarolari toʻq va farovon yashaydigan davlatlariga faqat havas koʻzi bilan boqardik. Ona Oʻzbekistonimiz ham qachondir mana shunday taraqqiy etgan, inson huquqlari ustuvor boʻlgan mamlakatlar qatoriga qoʻshilarmikan deb orzu qilardik.

Bugun esa xalqaro hamjamiyat, nufuzli siyosiy doiralor Oʻzbekistonda kechayotgan shiddatli va tizimli oʻzgarishlarni katta qiziqish, hayrat va havas bilan kuzatmoqda, undan andoza olmoqda.

Mamlakatimizning global maydondagi geosiyosiy nufuzi va ovozi tobora oshib borayotgani, yirik xorijiy investitsiyalar hamda transmilliy loyihalarining yurtimizga hech qanday xavf-xatarsiz kirib kelayotgani yoki qadimiy Samarqand shahrining qisqa fursatda dunyo iqtisodiy va xalqaro siyosat markazlaridan biriga aylangani ham ana shu toʻgʻri tanlangan taraqqiyot yoʻlining amaliy ifodasidir.

Muxtasar aytganda, Qudratilla Rafiqovning “Millat Shavkati” maqolasi bir buyuk haqiqatni yana bir bor mustahkam tasdiqladi. Zero, xalq chin dildan ishongan, oʻz rahbari bilan yelkadosh boʻlgan islohotlar hech qachon toʻxtamaydi va aslo ortga qaytmaydi.

Chunki bunday izchil yangilanishlar shunchaki qogʻozlarda yoki quruq qonunlarda emas, millionlab insonlar qalbida, dunyoqarashida va ong-u shuurida qaror topib boʻladi. Bu esa yangi Oʻzbekistonimizning porloq kelajagi uchun eng mustahkam, eng yengilmas poydevordir.

Bugun dunyo taraqqiyotida “iqtisodiy oʻsish” tushunchasi tobora kengayib, unga inson salomatligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, toza havo, musaffo suv, yashil hududlar va ekologik xavfsizlik kabi hayotiy omillar hamohang tarzda qaralmoqda. Zero, tabiatga ehtiyotkor munosabat boʻlmagan joyda farovonlik ham, kelajak avlodlar uchun munosib hayot muhiti ham barqaror boʻla olmaydi. Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlar mamlakat taraqqiyotining strategik yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi

EKOLOGIK ISLOHOTLAR: BARQAROR RIVOJLANISHNING MUSTAHKAM ASOSI



Soʻnggi yillarda ekologik siyosatga yondashuv tubdan oʻzgardi. Avvallari atrof-muhit muhofazasi koʻproq nazorat va chekllovlar tizimi sifatida talqin qilingan boʻlsa, endilikda u davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, taʼlim, shaharsozlik, qishloq xoʻjaligi, sanoat va jamoatchilik ishtiroki bilan bogʻliq kompleks sohalardan biridir. Bu esa ekologik masalalarni faqat oqibatlar bilan kurashish emas, balki xavflarni oldindan baholash, oldini olish va har bir sohada “yashil” mezonlar orqali hal qilishni taqozo etadi.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida suv resurslarini tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim oʻzgarishiga moslashish, chiqindilarni boshqarish, yashil hududlarni kengaytirish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kabi vazifalar alohida ustuvorlik kasb etdi.

Ekologiya sohasidagi eng muhim oʻzgarishlardan biri boshqaruv tizimining institutsional jihatdan kuchaytirilishi boʻldi.

Ekologiya va iqlim oʻzgarishi milliy qoʻmitasi faoliyati yoʻlga qoʻyilishi, sohada davlat nazorati, monitoring, tahlil va jamoatchilik bilan muloqot mexanizmlari takomillashtirilishi ekologik siyosatga yangicha mazmun bermoqda. Bu, avvalo, ekologik muammolarni mahalliy yoki idoraviy darajada emas, milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan koʻrish zarurligini anglatadi.

2025-yil 24-fevralda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga taʼsirni baholash va strategik ekologik baholash toʻgʻrisida”gi qonun sohadagi eng muhim huquqiy yangiliklardan biri boʻldi. Ushbu qonun loyiha va dasturlarni amalga oshirishdan oldin ularning atrof-muhitga ehtimoliy taʼsirini baholash, ekologik xavflarni erta aniqlash va qaror qabul qilish jarayonida ekologik omillarni inobatga olish imkonini beradi. Bu esa “avval qurib, keyin oqibatni bartaraf etish” amaliyotidan “avval baholash, keyin amalga oshirish” tamoyiliga oʻtilayotgani belgisidir.

Strategik ekologik baholash instituti joriy etilishi, ayniqsa, muhim. Chunki yirik infratuzilma, sanoat, shaharsozlik, energetika yoki transport loyihalari faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan emas, balki havo, suv, tuproq, bioxilma-xillik va aholi salomatligiga taʼsiri jihatidan ham baholanishi kerak. Bu amaliyot rivojlangan davlatlarda keng qoʻllanadigan “oldindan ogohlantirish” tamoyiliga mos keladi. Demak, yangi qonun ekologik xavfsizlikni taʼminlash bilan birga investitsiya muhiti shaffofligi va barqarorligini ham oshiradi.

Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalasi ham huquqiy jihatdan yangi bosqichga koʻtarilmoqda. 2025-yilda qabul qilingan yangi Suv kodeksi suv munosabatlarni zamonaviy talablar asosida tartibga solish, suvdan tejamlor foydalanish, suv obyektlarini muhofaza qilish va suv xoʻjaligi boshqaruvida masʼuliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Oʻzbekiston kabi suv resurslari cheklangan, iqlim oʻzgarishi taʼsiri kuchayib borayotgan mamlakat uchun ushbu kodeksning



Qizilgul QOSIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

ahamiyati beqiyos. Chunki suv nafaqat qishloq xoʻjaligi yoki sanoat, balki aholi salomatligi, ozioq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlik uchun ham hal qiluvchi resursdir.



Yer qaʼri, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, oʻrmonlar, atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilarni, ekologik ekspertiza va sanitariya-ekologik xavfsizlikka oid qonunchilik hujjatlari ham sohadagi islohotlarning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Muhimi, bugun qonunlarga faqat taqiy yoki jazo vositasi emas, balki barqaror rivojlanishni taʼminlaydigan amaliy mexanizm sifatida qaralmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda ishonchli maʼlumot va ochiq monitoring hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu jihatdan Ekologik monitoring milliy markazi tashkil etilishi sohadagi islohotlarning ilmiy-amaliy asosini mustahkamlaydi. Havo sifati, suv resurslari, tuproq holati, bioxilma-xillik, sanoat chiqindilari va iqlim koʻrsatkichlari boʻyicha

aniq, ochiq va doimiy maʼlumotlar mavjud boʻlsagina, samarali qaror qabul qilish mumkin. Demak, ekologik siyosatning kelgusi bosqichi raqamli monitoring, ochiq maʼlumotlar va jamoatchilikka hisobdorlik bilan chambarchas bogʻliq.

Oʻzbekistonning ekologik islohotlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi alohida oʻrin tutadi. Bu loyiha faqat daraxt ekish aksiyasi emas, balki shahar va qishloqlarda yashash muhitini yaxshilash, havo sifatini muhofaza qilish, tuproq eroziyasining oldini olish, issiq iqlim sharoitida tabiiy soya va namlik muvozanatini saqlashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy harakattir. Muhimi, endilikda “Yashil makon” doirasida ochiqlik va raqamlashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Aholi daraxt ekish mumkin boʻlgan hududlar, suv taʼminoti, parvarish imkoniyatlari va byudjet mablagʻlari sarfi haqida maʼlumotga ega boʻlish loyiha samaradorligini oshiradi.

Buyerda eng muhim masala ekilgan koʻchatlar soni emas, ularning yashab ketishi, parvarishi va hudud ekologiyasiga real taʼsiridir. Shu bois, daraxt ekishda mahalliy iqlimga mos navlarni tanlash, sugʻorish tizimini yoʻlga qoʻyish, mahalla, taʼlim muassasalari, tadbirkorlar va nodavlat tashkilotlar ishtirokini kuchaytirish zarur. “Yashil makon”ning haqiqiy natijasi yillik hisobotlarda emas, balki shaharlarimizda nafas olish yengillashganida, mahallalarda soya-salqin maskanlar koʻpayganida, bolalar va keksalar uchun qulay ekologik muhit yaratilganida namoyon boʻladi.

Chiqindilarni boshqarish sohasida yangicha yondashuv shakllanmoqda. Maishiy chiqindilarni toʻplash, saralash, qayta ishlash va ulardan iqtisodiy qiymat yaratish bugun sirkulyar iqtisodiyotning muhim yoʻnalishidir. Chiqindini muammo emas, resurs sifatida koʻrish madaniyati rivojlanmas ekan, poligonlar yuki ortaveradi, tuproq va yer osti suvlari zara kuchayadi. Shu nuqtayi nazardan, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, poligon gazidan muqobil energiya ishlab chiqarish, tadbirkorlik subyektlarini qayta ishlash sohasiga jalb etish va aholi oʻrtasida saralash madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston uchun yana bir dolzarb yoʻnalish chang boʻronlari, havo ifloslanishi va choʻllanishga qarshi kurashishdir. Markaziy Osiyo iqlim oʻzgarishi taʼsirini keskin his qilayotgan mintaqalardan biri. Suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, Orolboʻyi muammosi, sanoat va transport chiqindilari havo sifatiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Shu bois, chang boʻronlariga qarshi milliy dasturlar, yashil belbogʻlar barpo etish, yerlarni muhofaza qilish, havo sifati monitoringini kuchaytirish va aholi salomatligiga taʼsir etuvchi xavflarni kamaytirish choralari strategik ahamiyat kasb etadi.

Ekologik siyosatning muvaffaqiyati faqat davlat organlari faoliyati bilan cheklanmaydi. Bu borada aholining ekologik madaniyati hal qiluvchi omildir. 2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan yondashuvlar shu jihatdan muhim. Maktabgacha taʼlimdan tortib, oliy taʼlimgacha, davlat xizmatidan tadbirkorlikkacha, mahalladan ommaviy axborot vositalarigacha — barcha boʻgʻinlarda ekologik bilim va masʼuliyatni kuchaytirish zarur. Chunki tabiatni asrash haqidagi qonunlar qogʻozda emas, kundalik hayotda — suvni tejash, chiqindini saralash, daraxtni asrash, havoni ifloslantirmaslik, jamoatchilik nazoratida faol boʻlish orqali amalga oshadi.

Albatta, sohada yechimini kutayotgan masalalar bor. Ayrim hududlarda chiqindilarni saralash infratuzilmasi yetarli emas, sanoat korxonalarida ekologik standartlarga rioya etishda muammolar uchraydi, shaharlarda yashil hududlar ulushini oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Suv resurslaridan foydalanishda tejamlor texnologiyalar, qurilishda ekologik meʼyorlar, transport tizimida toza energiya oʻtish jarayonlarini yanada jadallashtirish talab etiladi. Lekin muhimi, bu muammolar endi ochiq muhokama qilinmoqda, ular boʻyicha huquqiy va institutsional mexanizmlar yaratilmoqda.

Oʻzbekistonda ekologik islohotlarning mohiyati shundaki, tabiatga munosabatga davlat siyosatining chekka yoʻnalishi emas, balki inson qadrini ulugʻlashing amaliy koʻrinishi sifatida qaralmoqda. Toza havo — inson huquqi, musaffo suv — hayot manbai, yashil hudud — sogʻlom jamiyat belgisi, ekologik madaniyat esa taraqqiyot madaniyatidir.

Shu bois, bugungi ekologik islohotlar nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki iqtisodiyotni modernizatsiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash, shahar va qishloqlar qiyofasini yaxshilash, kelajak avlodlar oldidagi masʼuliyatni ado etish yoʻlidagi muhim qadamlardir. Qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari va keng jamoatchilik ishtirokidagi tashabbuslar bir maqsadga — ekologik xavfsiz, barqaror va farovon Oʻzbekistonnı barpo etishga xizmat qilmoqda. Zero, tabiatni asragan jamiyat oʻz kelajagini asraydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bir qator davlat yetakchilari bilan telefon orqali muloqot o'tkazdi, xorijiy delegatsiyalarni qabul oldi. Davlatimiz rahbari huzurida yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq dolzarb masalalarga bag'ishlangan taqdimot va videoselektor yig'ilishlari bo'lib o'tdi.



Hududlar hayoti

Yer va el

EKSPORT

HAJMI OSHDI,

GEOGRAFIYASI KENGAYDI

Fargʻonaliklar bogʻdorchilik sirlarini puxta oʻzlashtirgan. Quyoshli zaminda yetishtirilgan sarxil mevalar yaqin qoʻshni davlatlardan tashqari Yevropa, Xitoy, AQSH kabi uzoq mamlakatlar bozoriga ham kirib bordi. Bugun viloyatda 55 ming gektar bogʻ va tokzor mavjud. Joriy yilda umumiy qiymati 500 million dollarlik 611 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish koʻzlangan. Buning uchun imkoniyat, sharoit yetarli. Masalan, keyingi oʻn yillikda 8000 gektardan ortiq sanoatlashgan bogʻ va tokzor barpo etilib, 6000 gektar kam hosilli mevozor yangilandi.

Quva tumanidagi 6500 gektar mevazorning 1200 gektari intensiv bogʻlar. Ayni kunda tumanidagi 38 ta eksportyor korxona 11 davlatga umumiy qiymati 8 million dollarlik gilos va oʻrik eksport qildi. “Jannat bogʻi” fermer xoʻjaligi tomonidan adirlar oʻzlashtirilib, suv tejovchi texnologiyalar yordamida 70 gektar yerda intensiv giloszor barpo etildi. Ozarbayjondan keltirilgan navlar serhosilligi va eksportbopligi bilan ajralib turadi.

— Mevaminzi kimyoviy oʻgʻitlarsiz, organik usulda yetishtirishga alohida eʼtibor qaratdik, — deydi bogʻbon Odiljon Mirzaqosimov. — Organik qishloq xoʻjaligi mahsuloti deb sertifikatlangan mahsulotlar boshqalariga nisbatan qimmat baholanadi va sotiladi. Shu bois, tabiiy ekologik muvozanat va ekotizimni saqlash, sintetik mineral oʻgʻitlar hamda pestitsidlardan voz kechgan holda tabiiy mineralardan foydalanib, mahsulot yetishtirishga harakat qilyapmiz. IZlanishlarimiz besamar ketmadi. Bu yil ilk bor AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreyadagi yirik savdo tarmoqlariga mahsulot yetkazib berdik.

Organik qishloq xoʻjaligi maydoni tashkil qilgan fermer va dehqonlarga yemi lazer bilan tekislash xarajatini davlat qoplab beradi. Organic, Halal, Kosher kabi sertifikatlarni olish xarajati uchun tadbirkorlarga subsidiya ajratilishi belgilangan. Bu organik mahsulotlar salmogʻini koʻpaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda katta ahamiyatga ega.

Fargʻona viloyati oʻsimliklar karantini va himoyasi boshqarmasi masʼullari daradan eksportgacha boʻlgan jarayonda bogʻdorchilik xoʻjaliklari hamda tadbirkorlik subyektlariga yaqindan koʻmak bermoqda. Amaliy loyihalar Oltiariq tumanida ham izchil amalga oshirilmoqda. Joriy yil tumanida 6500 tonna sigʻimga ega 7 ta muzlatkichli zamonaviy omborxona barpo etildi. Bu meva-sabzavotlarni sifatli saqlash va yil davomida eksport qilish imkonini beradi. Avvalgi yillari tumanida eksportga koʻmaklashuvchi bitta markaz faoliyat yuritgan boʻlsa, bugunga kelib ularning soni 3 taga yetdi.

Joriy mavsumda tumanimizdagi eksportga koʻmaklashuvchi barcha markaz 24/7 rejimida ishlamoqda, — deydi tadbirkor Abduvohid Gʻofurov. — Bu ortiqcha ovoragarchilik, rasmiyatchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Hamma hujjat “Bir darcha” tamoyili asosida shu yerning oʻzida rasmiylashtirilmoqda.

Oʻtgan yili Fargʻona viloyatida yetishtirilgan 235 ming tonna meva-sabzavot 60 davlatga eksport qilingan. Birgina gilos eksporti qiymati 29,8 million dollarni tashkil etdi. Bu yil mazkur koʻrsatkich salmogʻi yanada oshiriladi.



— Bu yoʻnalishda “daladan eksportyorgacha” tamoyili asosida ishlaymiz, — deydi Fargʻona viloyati oʻsimliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari Ilhomjon Turdiyev. — Ruxsat berish va sertifikat hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bogʻliq tizim toʻliq elektronlashtirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar bilan

tuziladigan shartnomalar “onlayn-oferta” usulida rasmiylashtirilyapti. Bu xaridorga ekin turi, yetishtirishdagi agroteknik tadbirlar, hosilni terib olish, qadoqlash, yuklash bilan bogʻliq barcha jarayonni bevosita kuzatib borish imkonini beradi.

Viloyat oʻsimliklar karantini va himoyasi boshqarmasiga Qishloq xoʻjaligini

rivojlantirish xalqaro jamgʻamasi granti hisobidan umumiy qiymati 164 ming dollarlik zamonaviy fitosaniyariya, oʻsimliklar va mevali daraxtlar kasalliklarini aniqlash boʻyicha laboratoriya uskunalar olib kelindi. Yangi jihozlar oʻsimliklarga zarar keltiruvchi, oddiy quрилmalarda bilib boʻlmaydigan virus va bakteriologik kasalliklarni erta aniqlashda qoʻl keladi.

Meva-sabzavotchilik tarmoqlari rivojlangan 13 ta hududda eksportchilar uyushmasi tashkil etildi. Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda xorijiy tillarni puxta oʻzlashtirgan salohiyatli yoshlar eksportyorlarga biriktirib berilyapti. Faol eksportyor va tadbirkorlardan iborat jamoatchilik kengashlari joylarda boʻlib, mahsulot yetishtirish, terish, qadoqlash jarayonini nazorat qilmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishni koʻpaytirish, eksport hajmi va geografiasini kengaytirishga qaratilgan yangi loyihalar bu boradagi ish salmogʻini yanada oshirmoqda. “Quva Agrostar” zamonaviy korxonasi faoliyati bunga misol boʻla oladi. Soʻnggi rusumdagi texnologiyalar bilan jihozlangan agrokompleksda 12 turdagi 5000 tonnadan ortiq mahsulot yetishtirish, qadoqlash, qayta ishlash imkoniyatlari yaratildi. Global GAP, ISO 22000,

xoʻjaligi bilan kooperatsiya asosida faoliyat yuritadi, — deydi “Quva Agrostar” korxonasi laboratoriyasi mudiri Sardorbek Toirov. — Ayni jarayonda aholiga 10 sotix yerdan oʻrtacha 250 million soʻm daromad qilish amaliyoti oʻrgatilmogʻda. Joylarda koʻchat yetkazish, ekinlar rivojini nazorat qilib, nazariy va amaliy koʻnikmalar beruvchi mobil laboratoriya, xizmat va oʻquv markazlari tashkil etildi. Bu nafaqat yirik bogʻlarda, balki aholi tomoqga xoʻjaliklarida ham sarxil va eksportbop mahsulot yetishtirish amaliyotida qoʻl keladi.

Agrovoltaika usulida tashkil etilgan uzumzorda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida har qancha gapirsak oz. Hududda qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda ikki bosqichli suv tejovchi texnologiyalar oʻrnatilgan. Intensiv bogʻ, chorvachilik va baliqchilikni qamrab olgan 110 gektarli kompleks agrar tarmoq rivojiga xizmat qilyapti. Quyosh panellari elektr energiyasi bilan taʼminlash barobarida ekin uchun soya vazifasini ham oʻtamoqda. Shu orqali oʻsimliklar ildizi atrofidagi namlik saqlanyapti. Ushbu zanjir halqasi haroratni meʼyorda ushlab turish orqali quyosh panelining barqaror ishlashini taʼminlaydi. Bu, oʻz navbatida, suv tejamkorligiga xizmat qiladi.

— Bunday samarali loyihalar bosqichma-bosqich koʻpaytirib boriladi, — deydi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi Fargʻona viloyati boʻlimi boshligʻi Ravshanbek Roʻziyoyev. — Viloyatimizda 55 ming gektar bogʻ va tokzor bor. Shundan 5500 gektari eskirgan, 6000 gektar dasht va adir yerlaridan samarali foydalanilmayapti. Bugun mazkur hududlar imkoniyatini oʻrganib, istiqbolli loyihalarni ishga tushirish borasida ishlanyapti. Bu qoʻshimcha 300 ming tonna meva-sabzavot yetishtirish va iqtisodiyotga 2 trillion soʻmlik qoʻshilgan qiymat zanjirini yaratish imkoniyatini beradi.

Fargʻonalik bogʻbonlar mahsulot hajmi va eksport salmogʻini oshirishga qaratilgan yirik loyihalar koʻlamlari kundan kunga kengaytirib boryapti. Oʻtgan yilning oʻzida tashqi bozorga 235 ming tonnadan ortiq sarxil meva-sabzavot eksport qilingan.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



Yuksalish odimlari

Xoʻjayli tumanidagi “Qirqqiz Xoʻjayli tekstil” korxonasiga asos solgan tadbirkor Norgul Xudoyberganova bitta tikuv mashinasi bilan ish boshlagan edi. Bugungi kunga kelib, u rahbarlik qilayotgan yirik korxonada yuzdan ortiq xotin-qiz ish bilan taʼminlangan. Korxonada milliy liboslar, buyurtma asosida kasbga oid maxsus kiyimlar hamda koʻrpa-toʻshaklar tikilib, isteʼmolchilarga yetkazib berilyapti. Milliy kiyimlar, asosan, Qozogʻistonga eksport qilinmoqda.

TADBIRKORLARGA MUNOSABAT O'ZGARGANDA...

— Koʻp yildan buyon shu tikuv sexida ishlayapman. Korxonamizning mijozlari koʻp. Jamoamiz ahlil, — deydi chevarlardan biri Gulbahor Orazniyozova.

Bu yerda mavsumiy ravishda talaba va maktab oʻquvchilari ham oilasiga qoʻshimcha daromad topish uchun ishlaydi. Shuningdek, kasanachilik yoʻlga qoʻyilgan.

Xoʻjayli tumani “Mustaqillik” ovul fuqarolar yigʻinida yashovchi Komiljon Allambergenov tomoqasidan unumli foydalanmoqda. Oila aʼzolari bilan birga bir gektar yerda sarxil meva-cheva va poliz ekinlari yetishtirib, qoʻshimcha daromad topadi.

— 2017-yilda Prezidentimiz bilan uchrashish baxtiga muayassar boʻldim. Shundan soʻng bogʻdorchilikni rivojlantirish uchun koʻmak berilib, soʻliqlar boʻyicha imtiyozlar joriy qilindi. Oʻsha uchrashuvdan ruhiy kuch olib, ishlarim ham yurishib ketdi. Boshqa viloyatlardan yaxshi navli meva koʻchatlarini keltirib oʻtqaza boshladim. Hozir bogʻimiz gullab-yashnayapti, — deydi Komiljon Allambergenov. — Asalarichilik bilan ham shugʻullanamiz. Mevalardan tabiiy sirkat tayyorlayman, oʻrik qoqalayman. Koʻchat yetishtirib, sotaman. Xullas, uyimizda bekor oʻtirganing oʻzi yoʻq. Erta tongdan turib toza havoda ekinlarni parvarishlaymiz. Daromadimiz oʻziga yarasha. Axir mehnat qilgan odam yaxshi yashaydi. Tadbirkorlik, fermerlik bilan shugʻullanaman deganlar uchun barcha imkoniyatlar bor. Faqat astoydil mehnat qilish, harakatdan toʻxtamaslik kerak. Xoʻjayli tumani mebel tayyorlash boʻyicha yetakchi oʻrinni egallaydi. Tumanida ishlab



chiqarilgan mebellarning xaridorgirliqi sifati yaxshiligi va narxi arzonligida. “Tinchlik” mahalla fuqarolar yigʻinidagi “Raxat Orazimbetov” mebel ishlab chiqarish korxonasi oʻttiz yildan buyon faoliyat yuritib keladi.

— Yurtimizda tadbirkorlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, ishimizni takomillashtirib boryapmiz. Germaniyadan olib kelingan uskunalar faoliyatimizni yengillashtirib, mahsulotlarimiz sifatli chiqishiga asos boʻlmoqda. Shuningdek, ustoz-shogird

anʼanasi yoʻlga qoʻyilgan. Yoshlarga hunar oʻrgatish va ular bandligini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratib kelimiz, — deydi tadbirkor Saida Mavlonberganova.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda oʻziga xos yangi tizim — Orolboʻyi hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida viloyatlarni Qoraqalpogʻiston Respublikasi tumanlariga birlashtirish amaliyoti yoʻlga qoʻyilgan edi. Bu euzu tashabbus bugun oʻz amaliy natijalarini bermoqda.

Buxoro viloyati va Xoʻjayli tumanining amaliy hamkorligi bilan shu paytgacha uyida faqat jundan oddiy gilam toʻqish bilan shugʻullanib kelgan 15 xotin-qiz Buxoroga taklif etildi.

Ular 10 kun mobaynida mashhur “Buxoro ipak gilam markazi” oilaviy korxonasida boʻlib, buxorolik usta-hunarmandlardan ipakdan gilam toʻqishning qadimiy sir-asrorlarini oʻrgandi. Jun gilamga nisbatan ancha murakkab, ammo dunyo bozorida yuqori baholanadigan ipak gilam toʻqishni oʻzlashtirgan xotin-qizlar endi yangi tarmoqga asos solmoqda. Xoʻjayli tumanining oʻzida ham ipakdan gilam toʻqish markazlarini ochish va shu orqali yuzlab mahalliy xotin-qizlar bandligini taʼminlash koʻzda utilgan.

— Bu kabi loyihalar nafaqat ikki hudud oʻrtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlaydi, balki Orolboʻyi ayollarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularni daromad manbai bilan taʼminlashda muhim koʻprik vazifasini oʻtaydi. Buxoro tajribasi asosida Xoʻjaylida qad rostlaydigan yangi gilamdoʻzlik markazlari yaqin kelajakda Qoraqalpogʻiston brendi ostida dunyo bozorlariga nafis ipak gilamlar chiqarish imkonini beradi, — deydi Buxoro viloyati hokimi oʻrinbosari Hafiza Ortiqova.

Xoʻjayli tumanidagi Bayterek va Murtazobiy mahallalarini bogʻlovchi T.Ibragimov koʻchasidagi piyodalar koʻprigi qayta taʼmirlanib, foydalanishga topshirildi. U aholining kundalik qatnov yoʻli boʻlib, yillar davomida qarovsiz qolgan va koʻplab muammolar tugʻdirib kelgan. Muammoni hal etish maqsadida mahalliy tadbirkor Ulugʻbek Bobojonov oʻz hisobidan koʻprikni toʻliq qayta taʼmirladi. Koʻrib turganimizdek, tadbirkorlar faqat ishlab chiqarish, fuqarolar bandligini taʼminlash bilan cheklanib qolmay, savob ishlarga ham qoʻl uryapti.

Tumandagi Toshkoʻpir mahallasida davlat-xususiy sheriklik asosida “Nurli qadam” maktabgacha taʼlim tashkiloti qurib bitkazildi. Bu ishlar tadbirkor P.Masharipova tomonidan bajarildi. Loyihaga uchun jami 3,7 milliard soʻm sarflanib, zamonaviy qulayliklarga ega 120 oʻrinli bolalar bogʻchasi ishga tushirildi. Natijada 16 kishi doimiy ish bilan taʼminlandi.

Xoʻjayli tumanida tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanib, faoliyat yuritayotgan ishilarmonlar soni kun sayin ortib bormoqda. Albatta, bularning barchasi yurtimizda tadbirkorlarga munosabat yaxshi tomonga oʻzgarganidan dalolat beradi.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Obod manzillar

“Tashabbusli budget” xalq istaklari roʻyobi, mahallalar taraqqiyoti garovi boʻlib bormoqda. Surxondaryo viloyatida ham 2022-2026-yillarda aholi tomonidan ilgari surilgan loyihalarni moliylashtirish orqali hududlardagi muammolarni hal qilishda “Tashabbusli budget” dasturi muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

“TASHABBUSLI BUDJET” —



mahallalar taraqqiyoti garovi

Bugungi kunda viloyatning Denov tumanida ham 27 milliard 22 million soʻmdan ziyod mablagʻ hisobiga infratuzilmani yaxshilash, xususan, yoʻllarni asfalt qilish qizgʻin davom etyapti.

Qurilish jarayonlari Koʻkabuloq, Loʻpon, Istiqloil yulduzi, Shahrinav, Oybarak, Qoraxon, Qiziljar va Xoʻjalexli mahallalarida pudratchi tashkilotlar yoʻlsolzlari tomonidan jadval asosida olib borilmoqda.

Loyihalar ijrosi yuzasidan davlat va jamoatchilik nazorati kuchaytirilgan. Denov tumanining Qoraxon mahallasi ahli hududda yoʻli infratuzilmasini yanada yaxshilash boʻyicha “Tashabbusli budget” loyihasida ketma-ket ikki marta gʻolib deb topildi.

— Avvallari koʻchamizda yurish juda qiyin edi. Mashina kirishi tugul piyoda yurishning oʻzi bir mashaqqat boʻlgan. Qishda loy, yozda chang boʻlardi, — deydi Qoraxon mahallasida yashovchi Xolmirza Jumayev. — Ayniqsa, kuz va qish mavsumida yoʻllar loy boʻlib, bolalar maktabga, kattalar ishga borishda qiyinalardi. Shu kunlarda mahalla koʻchalariga asfalt yotqizish yakunlanish arafasida. Tabiiyki, hudud ahli bundan juda xursand.

Surxon vohasida 2022-2026-yillar davomida “Tashabbusli budget” dasturi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, aholining dolzarb muammolarini hal etish va fuqarolarning davlat boshqaruvdagi ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda.

Keling, bu borada yillar kesimida bajarilgan ishlar koʻlamlari raqamlar orqali izohlasak. 2022-yilda Surxondaryo viloyatidan 13 ming 691 ta loyiha taklifi kiritilgan. Oʻsha paytda bu respublikadagi eng yuqori koʻrsatkichlardan biri boʻlgan. 2022-yilning 2-mavsumi yakunlari boʻyicha viloyatda gʻolib loyihalar uchun 78,2 milliard soʻm ajratilgan edi.

2023-yilda “Tashabbusli budget”ning 1-mavsumida viloyat aholisining 1 million 300 mingdan ortigʻi ovoz berish jarayonlarida ishtirok etib, jami 9595 ta loyiha taklif qilingandi. Ularning 212 tasi qoʻllab-quvvatlanishiga erishilgan. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun 110,6 milliard soʻm yoʻnaltirilgandi. 2024-2026-yillarda asosiy eʼtibor ichki yoʻllarni asfaltlash, ichimlik suv quvuri tortish, elektr tarmoqlarini modernizatsiyalash, koʻchalarni yoritish tizimlari, maktab va bogʻchalarni taʼmirlashga qaratilgan.

— “Tashabbusli budget” loyihasi eng chekka hududlarning ham obod boʻlishiga hissa qoʻshmoqda. Bunday eʼtibordan barcha mamnun, — deydi tadbirkor Sobitjon Xoʻjaqulov.

Mazkur loyiha hududlar ahli yakkidligi va tashabbuskorligi ifodasi boʻlib qoldi. Yurtdoshlarimiz loyihani har bir mavsumda katta xursandchilik bilan qarshi olmoqda. Bu kabi tashabbuslar samarasi yaqin kelajakda emas, bugungi kunlarimizda aks etayotgani bilan ahamiyatli.

Sarvar TOʻRAYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri


ILMIY YONDASHUV VA AMALIY YECHIM

Namanganda ish boshlagan yangi markaz ertamiz egalari bilan ishlashda o'ziga xos tajribaga tayanadi

Yoshlar — millatning nafaqat buguni, shu bilan birga ertasini belgilaydigan kuch. Shu bois, mamlakatimizda yoshlar siyosati yildan yilga chuqurlashib, yangi ma'no va mazmun kasb etmoqda. Prezidentimiz Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan muloqotda qayd etganidek, islohotlarning ilk kunlaridan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingani endilikda o'z samarasini bermoqda.



Kamolot pillapoyasi



Shu bilan birga, hozir mamlakatimizda bu boradagi ishlarga sifat va ilmiy jihatdan yondashilayotgani diqqatga sazovor. Ya'ni davlatimiz rahbari har bir sohadagi muammoni ilmiy asosda hal etishni, yoshlar masalasida esa yetakchi olimlar tajribasiga tayanishni davr talabi sifatida oldinga surmoqda. Dunyoda kun sayin yoshlar ongini egallashda yangi tahdidlar yuzaga kelayotgan sharoitda barcha darajadagi rahbarlar yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi ish tizimiga o'tishi zarurligini ta'kidladi. Chunki yoshlar masalasi bo'yicha muammolarni aniqlash va tizimli hal etishda kamchiliklar yo'q emas.

Ayni shu muammoning yechimi sifatida Namangan viloyatida mazkur sohaga bevosita mas'ul hisoblangan Davlat xavfsizligi xizmati viloyat boshqarmasi tashabbusi bilan yangi tajriba yo'lga qo'yildi. Joriy yilning 23-iyun kuni davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida Yoshlar muammolarini o'rganish va tahlil qilish markazi faoliyati bilan tanishib, uni kelgusida yanada kengaytirish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.

Namangan davlat universiteti qoshida ish boshlagan ushbu markazga siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi, pedagog, psixolog va sotsiologlar jalb etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad — markazni yoshlar muammolarini o'rganish, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiquvchi ilmiy-amaliy tuzilmaga aylantirish. Uning faoliyati keng qamrovli. Yoshlarga oid davlat siyosati ijrosini monitoring qilish, muammolarni joyiga borib aniqlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, normativ hujjatlar hamda davlat dasturlari loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish, yoshlar duch kelayotgan tahdidlar, jinoyatchilik va huquqbuzarlik sabablarini aniqlashga qaratilgan sotsiologik so'rovlar o'tkazish shular jumlasidan. Shuningdek, bu yerda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar kayfiyatini tahlil etish orqali axborot-tahliliy materiallar ham tayyorlanadi.

Markaz faoliyati samarali boshlandi. Jumladan, Uychi tumanidagi 53 ta mahallada olib borilgan tadqiqot jarayonida 1200 nafardan ortiq yosh o'rtasida so'rovnomna o'tkazildi, 500 dan ziyod yoshdan og'zaki intervyu olindi. Tumandagi 100 dan ortiq obyektning yoshlar manfaatiga xizmat qilish samaradorligi tahlil qilindi. Natijada 100 dan ziyod dolzarb muammo aniqlanib, har biri bo'yicha aniq yechim taklif etildi va ijroga yo'naltirildi.

Bugun yoshlar bandligi kun tartibi markazida turibdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, eng muhim vazifa, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berishdan iborat. Markaz mutaxassislari ushbu yo'nalishda ham amaliy takliflar

ishlab chiqdi. Jumladan, Qumtepa, Fayzobod va Jiydakapa mahallalarida norasmiy band bo'lgan 600 nafar yosh kasbga o'qitilib, malakali mutaxassis tayyorlash va daromadini oshirish mumkinligi asoslandi.

Tumanda norasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoshlar uchun barqaror daromadga ega bo'lmagan, lekin norasmiy band yoshlar maqomini joriy etish taklifi berildi. Ushbu maqom doirasida ularning mehnati soddalashtirilgan tartibda rasmiy hisobga olinadi va mehnat daftarchasi yuritiladi. Natijada ko'plab yoshlarning rasmiy bandligi ta'minlanadi, mehnat staji shakllanib, ijtimoiy himoya qamrovi kengayadi, yashirin iqtisodiyot esa kamayadi.



Narimon DEHQONOV,
Namangan davlat universiteti
qoshidagi Yoshlar muammolarini
o'rganish va tahlil qilish markazi
rahbari, siyosiy fanlar doktori,
professor

Markazda boshqa yo'nalishlarda ham bir qator takliflar shakllantirildi. Mahallalarda bo'sh va samarasiz foydalanilayotgan binolarni davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanishga berish, yoshlarning sport turlariga bo'lgan qiziqishidan kelib chiqib seleksioner-murabbiylarni manzilli birkitirish, sport inshooti yo'q mahallalarda yoshlar uchun sport infratuzilmasini yaratish, yoshlarning kasbiy kompetentligi va amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini kengaytirish shular sirasiga kiradi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish alohida e'tibor talab etadigan masala. Davlatimiz rahbari "Aslida, bitta bo'lsa ham jinoyat

Markaz faoliyati samarali boshlandi. Jumladan, Uychi tumanidagi 53 ta mahallada olib borilgan tadqiqot jarayonida 1200 nafardan ortiq yosh o'rtasida so'rovnomna o'tkazildi, 500 dan ziyod yoshdan og'zaki intervyu olindi. Tumandagi 100 dan ortiq obyektning yoshlar manfaatiga xizmat qilish samaradorligi tahlil qilindi.



Tadqiqot jarayonida tumanda iqtidorli va iste'dodli yoshlar ko'pligi, ammo ularni o'sib kelayotgan avlodga namuna sifatida ko'rsatish mexanizmi yo'qligi aniqlandi. Shu bois, har bir mahallada turli sohada yutuqqa erishgan yoshlardan "Yoshlar qahramoni"ni aniqlash va targ'ib qilish tizimi taklif etildi. Natijada mahallalarda 150 nafardan ortiq yangi iste'dod va lider tarkibi shakllandi. Bu yoshlar o'rtasida ijobiy namuna muhitini, motivatsiyani, sog'lom raqobat va o'z ustida ishlash ruhini kuchaytirmoqda, salbiy ta'sirlarni esa kamaytirmoqda.

Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan muloqotda davlatimiz rahbari "Bugungi kunning muvaffaqiyat formula, ertangi taraqqiyotning mustahkam zaminini uchta eng muhim ustunga tayanadi. Bu — bilim, kasb va texnologiya" deya ta'kidladi. Davlat xavfsizligi xizmati Namangan viloyati boshqarmasi tomonidan ilgari surilgan ushbu tajriba ayni shu formulaning amalda qanday ishlagisha yaqqol dalil. Markazda yoshlar muammosiga ilmiy nigoz orqali aniq va amaliy yechim topiladi. Bu nafaqat bir tuman yoki viloyat, balki butun mamlakat miqyosida tatbiq etishga arziydigan tajriba.

Davlatimiz rahbarining zamonaviy dunyoda mamlakatlar hududi yoki tabiiy boyliklari bilan emas, bilim, texnologiya va inson kapitali bilan raqobatlashayotgani haqidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi.



Nuqtayi nazar

YOSHLAR SALOHİYATINI RO'YOBGA CHIQRISHNING MUHIM BOSQICHI

Yoshlar kuni munosabati bilan Olimpiya shaharchasida Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan uchrashuv yoshlar siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini yana bir bor namoyon etdi. U yoshlar faqat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy qatlam emas, balki mavjud muammolarga samarali yechim taklif etayotgan, yangi iqtisodiy va ijtimoiy qiymat yaratayotgan kuch ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Prezidentimizning "Vorislk faqat faxrlanish emas, ulkan mas'uliyat hamdir", degan so'zlari uchrashuvning g'oyaviy mazmunini ifodaladi. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalarimizga vorislk faqat tarix bilan faxrlanishni emas, balki bilim yaratish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va xalq manfaatiga xizmat qiladigan yangiliklarni hayotga tatbiq etish mas'uliyatini ham yuklaydi. Shu jihatdan Uchinchi Renessans g'oyasi tobora aniq amaliy mazmun kasb etmoqda. Uning poydevori zamonaviy maktablarda, oliy ta'lim va ilmiy muassasalarda,



Farangiz ESHTURDIYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti doktranti

Aholini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalariga ko'ra, 2026-yilda mamlakatimizdagi 14-30 yoshli aholi soni 9,5 million nafarni, ya'ni umumiy aholining 25 foizini tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh kirib kelmoqda. Bu demografik salohiyat O'zbekistonning strategik ustunliklaridan biridir. Biroq demografik ustunlik



texnopark va laboratoriyalarda, yoshlar tashkil etayotgan startaplarda, yaratilayotgan dasturiy mahsulotlar, muhandislik ishlanmalari va ijtimoiy loyihalarda barpo etilmoqda. Zero, bu g'oyaning natijadorligi yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarning ilmiy natija, innovation mahsulot va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan tashabbuslarga aylanishi bilan belgilanadi.

Mazkur siyosatning huquqiy poydevori, eng avvalo, Konstitutsiyamizda davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi sifatida belgilangan. Shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi, ta'lim olishi, sog'lig'ini saqlashi, uy-joyga ega bo'lishi, ishga joylashishi va bandligi uchun shart-sharoit yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida mustahkamlangan. Shu bois, yoshlarga ta'lim olish, kasb egallash, mehnat qilish, o'z iste'dodini ro'yobga chiqarish va davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini yaratish muayyan davrga mo'ljallangan ijtimoiy yordam emas, balki konstitutsiyaviy majburiyatlarini amalga oshirish shaklidir. Yoshlarni ko'llab-quvvatlashga qaratilgan har bir dastur teng imkoniyatlarni kengaytirish, inson salohiyatini rivojlantirish va shaxsning erkin kamol topishi uchun huquqiy hamda institutsional sharoit yaratadi.

Mazkur yondashuv "Yangi O'zbekiston yoshlari — 2030" strategiyasida aniq maqsadlar, natija ko'rsatkichlari va ijro mexanizmlari bilan mustahkamlab qo'yildi. Unda yosh inson davlat qarorlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va natijalarini baholash jarayonining faol ishtirokchisi sifatida e'tirof etiladi. Strategiya yoshlar manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, hisobdorlik, shaffoflik, uzluksiz rejalashtirish va milliy-ma'naviy uyg'unlik tamoyillariga asoslanadi.

o'z-o'zidan taraqqiyot omiliga aylanmaydi. Uning iqtisodiy va ijtimoiy samarasi yoshlarning sifat ta'lim, zamonaviy kasb, ilm-fan va texnologiyalar bilan qamrab olinishiga bevosita bog'liq.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining zamonaviy dunyoda mamlakatlar hududi yoki tabiiy boyliklari bilan emas, bilim, texnologiya va inson kapitali bilan raqobatlashayotgani haqidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida inson tafakkuri strategik resursga, yoshlarning malakasi va yangilik yaratish qobiliyati esa milliy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

So'nggi yillarda erishilgan natijalar mazkur siyosatning amaliy samarasini ko'rsatmoqda. "Yoshlar daftari" orqali 1,5 million yoshning muammolari hal qilingan, yosh tadbirkorlar soni besh karra ko'paygan. Xorijiy tillarni intensiv o'rganayotgan yigit-qizlar soni 3,5 million nafarga yetgan. O'quvchi va talabalar xalqaro fan olimpiadalarida 434 ta, yosh sportchilar esa nufuzli musobaqalarda 2245 ta medalni qo'lga kiritgan. Ushbu ko'rsatkichlar davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar yoshlarning shaxsiy intilishi va mehnati bilan uyg'unlashganda aniq natija berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Uchrashuvda ilgari surilgan yangi tashabbuslar yoshlarni ko'llab-quvvatlash siyosatini keyingi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Har yili 500 ming yigit-qizni zamonaviy kasblarga o'qitishga qaratilgan "Kelajak bilimlari ekotizimi", kasbini yangilamoqchi bo'lgan yoshlar uchun "kasb vaucheri", ehtiyojmand oilalardagi ishsiz yoshlarning xususiy o'quv markazlarida bepul kasb egallashi, texnikumlarda davlat grantlarini kengaytirish kabi mexanizmlar ta'limni bevosita bandlik va daromad bilan bog'lashga xizmat qiladi. Bu orqali yoshlar siyosati mehnat bozori talablariga mos barqaror kompetensiyalarni shakllantirish modeliga o'tmoqda.

Oliy ta'lim bitiruvchisini ishga olgan tadbirkor uchun yosh mutaxassisga nisbatan daromad va ijtimoiy soliq stavkasining bir yil davomida 1 foiz etib belgilanishi ham alohida e'tiborga loyiq. Bu mexanizm ish beruvchining manfaatini yosh mutaxassisning bandligi bilan uyg'unlashtiradi, bitiruvchining mehnat bozoriga kirishidagi dastlabki ta'siqlarni kamaytiradi. Bunda yoshlar bandligini ta'minlash vazifasi ish beruvchi uchun aniq iqtisodiy rag'bat bilan mustahkamlanmoqda.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan "Yoshlar mini-franshizasi" dasturi, mahalliy brendlar asosida biznes boshlash uchun 300 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratilishi, yuqori daromad va ko'plab ish o'rinlari yaratadigan loyihalarga 5 milliard so'mgacha investitsiya kiritilishi yoshlarning biznes g'oyalarini bozorboq va barqaror loyihalarga aylantirish uchun moliyaviy asos yaratadi. Moliyalashtirishning tayyor biznes modellari va maslahat ko'magi bilan uyg'unlashtirilishi yoshlar tadbirkorligini tasodifiy faoliyatdan tizimli iqtisodiy institutga aylantirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida yoshlarning salohiyatidan foydalanishga qaratilgan "TOP-100" dasturi, ularning vazirlik, idora va xalqaro tashkilotlarda stajirovka o'tashi, iqtidorli yoshlarning rahbarlik lavozimlari va kadrlar zaxirasiga tavsiya etilishi davlat xizmatida meritokratik mezonlarni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu mexanizmlar Konstitutsiyamizda belgilangan yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, ishga joylashish va bandlik huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir qoidalarimiz izchil ifodasidir. Bunday tizimda yosh emas, uning bilimi, tashabbusi, kasbiy salohiyati va erishgan natijasi asosiy baholash mezoniga aylanadi.

Yosh huquqshunos va ilmiy xodim sifatida mazkur yo'nalishni alohida ahamiyatli deb hisoblayman. Zamonaviy davlat boshqaruvi tajriba bilan birga yangi bilim, ilmiy-tahliliy yondashuv, raqamli ko'nikma va tashabbuskorlikka ham tayanishi zarur. Yoshlarning davlat boshqaruvida tizimli jalb etilishi avlodlar almashinuvi emas, tajriba bilan yangicha tafakkurning o'zaro uyg'unlashuvidir. Bu esa qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va kelajakka yo'naltirilganini oshiradi.

Davlatimiz rahbarining "Biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlardan hech bir o'g'il-qizimiz chetda qolmasligi kerak", degan qat'iy talabi islohotlarning insonparvarlik mohiyatini ifodalaydi. Ota-ona qaramog'idan mahrum, nogironligi bo'lgan, migratsiya, harbiy xizmat yoki jazoni o'tashdan qaytgan yoshlar uchun "Kafolatlangan birinchi qadam" paketi joriy etilishi davlat siyosatida teng imkoniyat va ijtimoiy adolat tamoyillarini ustuvor ekanini ko'rsatadi. Shu tariqa yangi yoshlar siyosati faqat yuqori natijalarga erishgan yoshlarni rag'batlantirish bilan cheklanmay, boshlang'ich imkoniyatlari turlicha bo'lgan barcha yigit-qizlarning salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan inklyuziv mazmun kasb etmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mohiyatini huquq, imkoniyat va mas'uliyatning o'zaro uyg'unligida ko'raman. Huquq real imkoniyat bilan ta'minlangandagina amaliy mazmun kasb etadi, imkoniyat esa bilim, halol mehnat va shaxsiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgandagina taraqqiyot natijasiga aylanadi. Shu ma'noda, yoshlarni ko'llab-quvvatlash siyosatining pirovard maqsadi faqat imtiyozlar taqdim etish emas, mustaqil fikrlaydigan, dalil va ilmiy xulosalar asosida yangi yechimlar ishlab chiqadigan, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan avlodni shakllantirishdan iborat.

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan ochiq muloqoti, ularning loyihalarini shaxsan tinglashi va istiqbolli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi yoshlarda davlat islohotlariga daxldorlik, ishonch va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Bugun yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar aniq huquqiy, institutsional va moliyaviy mexanizmlar bilan ta'minlangan. Ulardan samarali foydalanish, chuqur bilim, halol mehnat, yuksak huquqiy madaniyat va vatanga sadoqat bilan mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish davlatimiz tomonidan bildirilgan yuksak ishonchga munosib javobdir. Ana shunday mas'uliyatli va bunyodkor avlodgina buyuk ajdodlar merosini davom ettirib, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlay oladi.

2026-yil 3-iyul, 133-son



Futbol allaqachon ko'ngilochar tomosha "chizig'i"dan o'tib ketgan. Agar chuqurroq razm salsak, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti, texnologiyasi, tibbiyoti va hatto ijtimoiy munosabatlari ham aynan mana shu o'yinning talab va ehtiyojlari atrofida aylanayotganiga guvoh bo'lamiz.

Eng avvalo, futbol ulkan sanoat zanjirlarini harakatlantiruvchi triggerga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Birgina qurilish sohasini oladigan bo'lsak, zamonaviy stadionlarda minglab tonna og'irlikdagi, harakatlanuvchi tom tizimlari, bir necha soat ichida butunlay almashadigan yoki yer ostiga kirib ketadigan maysazorlar aynan futbol ishqibozlariga qulaylik yaratish maqsadida o'ylab topildi. Bu esa qurilish texnologiyalarini bir necha o'n yillarga ilgari lab ketishga majbur qildi.

Maydonda yugurayotgan o'yinchining tana haroratini bir me'yorda saqlaydigan, shamol qarshiligini kamaytiradigan, "aqli" matolar (smart textiles) va maxsus butsalar ishlab chiqarish ortidan to'qimachilik va yengil sanoat boshqa davrlarda hech takrorlanmagan taraqqiyotni boshdan kechirdi. Millionlab insonlar ikki jamoa uchrashuvlarini uylaridan turib, o'zini go'yo stadiondagidek his qilishni istagani sababli, yuqori aniqlikdagi tasvir uzatish texnologiyalari, ya'ni 4K va 8K formatlari, yuqori tezlikdagi sun'iy yo'ldosh aloqalari hamda internet tarmoqlari shiddat bilan rivojlandi.

Reklama hamda marketing sohasini esa futbol siz tasavvur qilishning mutlaq iloji yo'q. Bugun dunyoning eng yirik brendlari o'z mahsulotlarini tanitishda aynan futbol yulduzlaridan foydalanadi.

Eng qizig'i, futbol hayotimizga ilgari mavjud bo'lmagan yangi sohalar va kasb egalarini olib



kirdi. Sport tibbiyoti va rehabilitatsiyasi ham alohida fanga, ilimga aylanib ketdi. Futbolchining jarohatdan keyin qisqa muddatda safga qaytishini ta'minlash maqsadida krio-kameralar, kognitiv mashg'ulotlar va neyrobiologiyaga asoslangan mutlaqo yangi davolash usullari kashf etildiki, bugun ulardan oddiy insonlar ham shifoxonalarda foydalanmoqda. Futbol klublarining moliyaviy muvozanatini saqlash ehtiyoji ortidan esa sport huquqi, sport menejmenti kabi o'ziga xos qonun-qoidalariga ega bo'lgan yangi huquqiy-iqtisodiy sohalar dunyoga keldi.

Ayniqsa, eng nufuzli xalqaro turnirlar yoki qit'a miqyosidagi chempionatlar o'tkaziladigan davrlarda turizm sohasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, chunki millionlab ashaddiy muxlislar o'z jamoalarini qo'llab-quvvatlash uchun nafaqat chipta sotib oldi, balki boradigan mamlakatlarining mehmonxonolari, restoranlari va ko'ngilochar maskanlarini to'ldirib, mahalliy biznesga misli ko'rilmagan darajada jon huquqi, sport menejmenti kabi o'ziga xos qonun-qoidalariga ega bo'lgan yangi huquqiy-iqtisodiy sohalar dunyoga keldi.

naqli bor. Ya'ni og'ir lahzalarda ham atrofdegilar tasavvur qila olmaydigan nurlu bir tomon, kutilmagan imkoniyat topiladi. O'zbekiston milliy terma jamoasining jahon chempionatidagi debiut ishtiroki muvaffaqiyatsiz kechgan bo'lsa-da, dunyo hamjamiyatining e'tiborini o'ziga qaratish, millat va davlat sifatida sayoramizning eng yirik platformalarida tanilish borasida ulkan ijoby to'lgini yuzaga keltirdi. O'yinlar boshlanishi bilanoq, millionlab insonlar ilgari xaritada qidirib ko'rimgan yangi bir davlat o'yinchilarining shiddatiga guvoh

bo'ldi, natijada Google qidiruv tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro media maydonlarida umumiy qiziqish qisqa muddat ichida deyarli yarim barobarga ortdi. Musobaqa davomida O'zbekistonning turizm brendi 1,07 milliarddan ortiq auditoriyaga yetdi, kontentlar esa 52 milliondan ortiq reaksiya, izoh va ulashishlar to'pladi. O'zbekiston milliy terma jamoasi ishtirokidagi uchrashuvlar kunlarida jahon ommaviy axborot vositalarida mamlakat haqidagi materiallar soni ham, Visit Uzbekistan,

Travel Uzbekistan va Uzbekistan Tour qidiruv so'rovlarini ham bir vaqtda sezilarli darajada oshdi. Eng yuqori o'sish Kolumbiya va Portugaliya terma jamoalariga qarshi o'yinlar vaqtida kuzatildi.

So'nggi haftalarda "Uzbekistan Colombia World Cup 2026" so'rovi bo'yicha qidiruvlar 450 foizga oshgan, "Uzbekistan" so'roviga umumiy qiziqish 40 foizga, "Tourism to Uzbekistan" mavzusiga oid qidiruvlar esa yana 10 foizga ko'paygan. Bu xalqaro auditoriyaning O'zbekistonga bo'lgan e'tibori tobora barqaror turistik qiziqishga aylanayotganini tasdiqlaydi.

Turizm qo'mitasi tomonidan FIFA World Cup 2026 doirasida yo'lga qo'yilgan keng qamrovli xalqaro axborot kompaniyasi ham mamlakatning turistik salohiyatini global miqyosda ilgari surishda ulkan natijalarni qayd etdi. Kampaniya doirasida Turizm qo'mitasi Uzbekistan turizm brendining keng ko'lami xalqaro axborot targ'ibotini ta'minladi. Mamlakat haqidagi materiallar 3 mingdan ortiq xalqaro ommaviy axborot vositalari va yangiliklar agregatorlarida e'lon qilindi. Materiallar nafaqat sport nashrlarida, balki BBC, ESPN, MSN, The Guardian, Fox News, Daily Mail, NDTV, VnExpress va boshqa yetakchi xalqaro ommaviy axborot vositalarida ham chop etildi. Milliy turizm stendlarini, rasmiy fan-zonalar va madaniy dasturlar orqali O'zbekistonning turizm salohiyati xalqaro auditoriyaga namoyish etildi hamda salohiyatli sayohatchilar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatildi.

FIFA World Cup 2026 tajribasi shuni ko'rsatdiki, tizimli xalqaro kommunikatsiya ishlari nafaqat rekord darajadagi axborot qamrovini ta'minlaydi. Shu bilan birga jahon auditoriyasining O'zbekistonga sayohat qilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda mamlakatning turizm brendini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Azizbek YUSUPOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nogoh shaharlik do'stim, to'g'rirog'i, qadrdon og'amning tug'ilgan kuni esimga tushdi. Darhol qo'ng'iroq qilib tabriklashga oshiqdim. Salom-alikni nasiya qilgancha Qobiljon og'a dedi:

— Tezroq yetib kel! Seni zo'r joyga olib boraman.

Ikki og'iz gapdan so'ng go'shakni qo'yib qo'rgan og'aning fe'l-atvorini yaxshi bilaman, tushunaman. Hech qachon xotirjam gurgunlashmaydi, doimo biror ishning boshini tutib turgan bo'ladi. Ayni tug'ilgan kunida u nimani rejalashtirdi ekan deb hayron bo'lib, yo'lga o'tlandim. Balki shu bahonai sabab daryo bo'ylarida dam olishga bormoqchidir?! Axir Amu epkinlari yelib turgan sohillarda dam olish poytaxtda yashab toqqa chiqish bilan baravar-da.



Bunyodkorlik

Og'aning gapi men uchun qonun, axir ko'p yillik qadrdonimiz so'zini sindirib bo'ladimi? Darhol olis qishloqdan Urganchga o'tlanarkannam, quyoshnuri sal olisidagi Hazorasp tumani markazida qad rostlagan ko'p qavatli uylar orasidan ko'tarilayotgandek tuyuladi. Ilkis yaqin yillargacha hamqishloqlarimning u yerdagi bozorga qanday borib-kelganini esladim. O'ydim-chuqur yo'llar bo'ylab kimdir yayov, kimdir ulovda qatnadi. O'ttiz yil muqaddam navqiron yigit paytim yarim qop guruchni velosipedga ortib, sotish uchun bozorga o'tlanganlarim bir-bir ko'z o'ngimdan o'tdi. Velosiped pedalini bosa-bosa tinkamadorim qurirdi. Yo'lining tanobi ham hech tortilay demasdi, bozori gavjum shaharchaning qorasi esa hadezanda ko'rinavermasdi.

Bugun esa, mana, o'n chaqirim naridagi mo'jazzina shaharda barpo etilgan yangi turar joylar xuddi serviqor yelib kabi ko'zga tashlanib, qalblarni entiktirib yubormoqda. Qishloqdan shaharlarga eltuvchi yo'llami-ku, aytmasangiz ham bo'laveradi — keng va ravonligidan o'zingizni xuddi uchib borayotgandek his qilasa.

"Ziyoilar" mahalla fuqarolar yig'ini Hazorasp tumanining qoq markazida joylashgan. Mahallaning Toshsoqa kanaliga yaqin hududidagi "Yangi O'zbekiston" massivida jadal sur'atda qurilish-bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Bu yerda 36 xonadonga mo'ljallangan 7 qavatdan iborat turar joylar deyarli qurib bitkazildi. Tez orada foydalanishga topshirilishi haqida OAVda ham aytiladi.

Urganchga boradigan jamoat transportiga chiqdim. Yo'l-yo'lakay Bog'ot tumani markaziga kirib borarkanmiz, bu yerda ham yangidan yangi binolar o'ktam pahlavonlar kabi qad kerib turganini ko'rdim. Yaqin yillargacha vohada Urganchdan boshqa biror tuman markazida ikki qavatli baliq imoratlar deyarli bo'lmagan. Endi serhasham osmono'par binolar tumanlararo kezzangiz sayin qarshingizda paydo bo'ladi.

Har bir hududdagi o'zgarish o'zgarish va bunyodkorliklar, shubhasiz, Prezidentimizning 2025-yil 8-oktabrdagi "Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash doirasida boshlab yuborilgan. Bu boradagi aniq rejaga asoslangan keng ko'lami ishlar esa hozir hamma joyda avjida. Xorazm viloyatining har qadamida tanlab olingan hududlarda yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallalar maqomini shakllantirish bo'yicha zalvarli ishlar qilinaotganiga duch kelamiz.

Mana, mashina jadal kesib o'tayotgan Bog'ot tumanida 183 mingdan ziyod odam istiqomat qiladi. Yaqin yillargacha bu joylarda ikki qavatli tuman hokimligi binosidan boshqa hashamatli imoratning o'zi



SHUKRONALIK VA BAKTDAN masrurlik nuri

yo'q edi. Endi esa Namuna va Nurli hayot mahallalarida bunyod bo'lgan osmono'par binolarni ko'rib, o'zingizni ajib tush ichra yurgandek his etasiz.

Rasmiy manbalarga ko'ra, Bog'otdagi 11 ta og'ir sharoitdagi mahallaning har biriga 2 milliard so'mdan mablag' ajratilgan. Bu pul, albatta, qo'shimcha ish o'rnlari ochish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlashga sarflanayotir. Bugungi Bog'ot faqat bog'lardan iborat emas. Unda katta-kichik korxonalar, Prezident maktabi va zavod-fabrikalar faoliyat yuritmoqda. Oldin dala va bog'larda ketmon

chopib ro'zg'or tebratgan bog'otliklar ayni damda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilyapti.

Urganch shahriga kirib borgach, Qobiljon og'a kutib turgan manzilda avtobusdan tushib qoldim. Shoshib salom-alik qilarkan, og'a meni mashinasi tomon boshladi.

Bugun viloyatning barcha tumanidan mehnat faxriylari va faollardan iborat bir guruh mehmonlar shahrimizdagi o'zgarishlar bilan tanishish maqsadida kelyapti. Yuring, ularga qo'shilib siz ham yangiliklardan voqif bo'lasiz, — deydi Qobiljon Atoyev.

Darvoqe, Qobiljon og'a "Nuroni" jamg'armasi Urganch shahri bo'limi mutaxassisi. Yuragi yoniq, ischkan odam. Ayni tavallud topgan kuni yelib-yugurib el xizmatida yurganiga havasim keldi.

Mashina ohista qo'zg'aldi. Mash'al mahallasini kesib o'tgan shohko'cha bo'ylab borarkanmiz, yangi qurilgan 16 qavatli turar joylarni ko'rib ko'zim quvnadi. Viloyat markazini o'rab turgan halqa yo'l bo'ylab tizilib turgan 30 dan ortiq baland-baland yangi bino esa qisqa muddatda bu yerlarni tanib bo'lmaz darajada o'zgartirib yuborgan edi. Ayni shu

yerda bir guruh faxriylar va faollar avtobusdan tushayotgan ekan. Ularga "Nuroni" jamg'armasi Xorazm viloyati bo'limi raisi Rustam Sultonov yetakchilik qilmoqda.

— Yaqin yillargacha tashlandiq, qumloq yerdan iborat bo'lgan Bobodehqon va Sholikor mahallalari hozir shaharga tutashib ketgan. Qumravot, Obod va G'alaba mahallalaridan o'tuvchi "Urganch — Shovot" magistralining 10 kilometr qismida tadbirkorlik subyektlari tashkil etish uchun qulay sharoitlar yaratilgan, — deydi Rustam og'a.

Savdo majmualari, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, servis maskanlarida esa ish qizg'in. Ertalabdan qoq zamonaviy binodagi sartaroshxona, tikuvchilik korxonasiga mijozlar kirib-chiqyapti. Avtoservislar oldi esa mashinaga to'la.

Urganch tumanida 221 ming kishi istiqomat qiladi. Bahorda tuman hokimligi o'tkazgan taqdimotda mutasaddidan biri yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallalarni shakllantirish maqsadida 10 milliard so'm ajratilganini ta'kidlagandi. Qisqa muddatda ko'p qavatli uylar qad rostlaganini ko'rib, ko'zlarimga ishonmadim.

Faxriylar va faollarga ergashib viloyat markazidagi Al-Xorazmiy shaharchasidagi qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan tanishishga yo'l oldik. Bu yerda ham ishlar avjida. — Mana, siz turgan joy — shahar ichidagi shaharcha. Bu yerda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan buyuk qomusiy olim Muhammad Xorazmiyning muazzam haykali qad rostlaydi. Olim nomi bilan ataluvchi yangi universitet binosi qurilishi nihoyasiga yetmoqda. Mazkur oliy ta'lim muassasasi huzuridagi iste'dodli yoshlar uchun ixtisoslashtirilgan

maktab 2026/2027-o'quv yilida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Shaharchadagi ilm-fan, innovatsiya va madaniyat markazlari ham yosh avlod zakavatini oshirishga munosib xizmat qiladi, albatta. "Aqli" texnologiyalar asosida jihozlangan 104 ta ko'p qavatli uy-joyda esa 5000 ta xonadon baxtli hayot kechiradi, — deydi Rustam Sultonov.

Yoshulliga qoyil qolmay iloj yo'q. Sayyohlarga gidlik qilishda manaman degan yoshlar ham uning oldida iy esholmasa kerak. So'zga jilo berib gapirishini-ku, aytmak ham bo'ladi.

— Uzoq yillar Urganch shahrida hokimlik qilganman. Ana shu davrda yurtimiz qiyofasi bu darajada o'zgarib ketishini xayolimga ham keltirmaganman, — deydi Rustam og'a. — Bu yerdagi tibbiyot muassasasi, texnopark, ofislar, innovatsiya va madaniyat markazlari, xiyobonlar, maktab va bolalar bog'chalari, sport majmualari, savdo va maishiy binolarda so'nggi pardozlash ishlari bajarilmoqda.

— 2026-yil boshidan viloyatimiz bo'yicha Urganch tumanida eng ko'p turar joylar barpo qilinoqda. Undagi xonadonlar birinchi gald a uy-joyga muhtoj oilalarga imtiyozli narxlarda beriladi. Ularga subsidiya, imtiyozli ipoteka kreditlari ajratilyapti, ba'zi oilalarning boshlang'ich to'lovini homiylar to'lab bermoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanganidan darak beradi, — deydi Urganch tumanidagi "Qumravot" mahalla fuqarolar yig'ini faoli Gavhar Nasrullayeva.

Darhaqiqat, bugun yurtimizning har bir go'shisi, har bir hududida katta bunyodkorliklar amalga oshirilyapti. Hatto oila tuman va shaharlar qiyofasi tanib bo'lmaz darajada o'zgarimoqda. Ayniqsa, viloyat markazidagi yangilanishlarni ta'riflab ado qilish qiyin. Urganch xalqaro aeroportidan to' Xonqa, Yangibozor tumanlariga tutashib ketadigan mahallalargacha yangi hayot nafasini sezish mumkin. Qaysi mahallada bo'lmang, ko'chalarga asfalt yotqizayotgan texnikalar ishlayotganiga guvoh bo'lasiz. Yangi beton arqlar chetiga rang-barang gullar ekilyapti. Qay bir eldoshimizga ro'baro' bo'lmang, chehrasida nur aks etib turganini ko'rasiz. Bu nur shukrona, baxtdan masrurlik nuri ekaniga shubha qilmaysiz.

Erpo'lat BAXT,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardon Tolliboyev
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy